

8-SINF ONA TILI DARSLIGI UCHUN 3 SOATLIK LOYIHA ISHI

(Ushbu lohiya milliy o‘quv dasturi asosida ishlab chiqilgan)

Masharipova N.R.

TAFU Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada 8-sinf ona tili darsligi uchun 3 soatlik loyiha ishi ishlab chiqilgan bo‘lib, “Mahalla guzari” matni asosida tilga oid bilimlarni tizimli o‘rgatib borish, dars jarayonini qiziqarli va mazmunli tashkil qilish maqsad qilib olingan. Har bir darsda to‘rtta ko‘nikma: o‘qib tushunish, eshitib tushunish, yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Guzar atamasi, o‘qib tushunish, til birliklari, yasama otlar, so‘z birikmasi, teng bog‘lanish, tobe bog‘lanish.

MAHALLA GUZARI

Bu mavzuda o‘rganamiz

- Mahalla guzari haqida ma‘lumotlar bilan tanishish
- Qo‘shnichilik munosabatlari
- Grafik ko‘rinishdagi axborotlarni o‘qib tushunish
- Mavzuga oid til birliklari
- Yasama otlar
- So‘z birikmasi; Teng va tobe bog‘lanish

Mavzuga ajratilgan jami soat:	Soat
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi	(Tavsiyaviy):
Mahalla guzari : kirish darsi	1 soat
<u>Yasama otlar; So‘z birikmasi</u>	1 soat
<u>Iqtidoringni namoyon qil</u>	1 soat

MAHALLA GUZARI

Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘quvchilar ongida xalqimizga xos qadriyatlar haqida tasavvur uyg‘otish; guzar so‘zining etimologiyasi, kasb nomlari; yasama otlar, sodda va murakkab qo‘shimchalar va ularning imlosi matn tarkibidan berilgan kasblarning izohibilan tanishish va lug‘at hosil qilish; so‘z birikmasi: teng va tobe bog‘lanish, ulardan foydalanish qoidalari, nutqda qo‘llay olish; Fikr ifodalay olish

ko‘nikmasini shakllantirish, og‘zaki nutqida fikrini ravon ayta olish, sahnada o‘z istedodini namoyon qila olish; jonli nutq va videoreportaj materiallarni tayyorlash, nutqiy mavzu yuzasidan rasm va ma‘lumotlardan foydalanib matn yozish ko‘nikmasini shakllantirish;



XALQIMIZGA XOS BO‘LGAN QADRIYATLAR NIMALARDA NAMOYON BO‘LADI, BIZ UNI BIR NOM BILAN NIMA DEB ATASHIMIZ MUMKIN?



Mahalla guzari

Mahalla – moziy, bugun va kelajakni tutashtiruvchi maskan. Adabiyotlarda mahallaning ko‘p ming yillik tarixga ega ekanligi haqida ma‘lumotlar uchraydi. Alisher Navoiy o‘zining “Hayrat ul-abror” asarida mahallani «mahalla shahar ichidagi shaharcha»dir deb ta‘riflaydi. “Mahalla” atamasi arabcha bo‘lib, «o‘rin-joy» degan ma‘noni anglatgan. U turli mintaqalarda mahallot (joy), guzar, jamoa, elat, elod nomlarda atalib kelingan. Guzar —Bu “o‘t -o‘t” ma‘nosini anglatadigan tojikcha “guzashtan” fe‘lining guzar hozirgi zamon asosiga teng; otlashib asli “o‘tish joyi” ma‘nosini anglatadi. Bu ot o‘zbek tilida “mahallaning do‘kon, sartaroshxona, choyxona joylashgan serqatnov joyi” ma‘nosini anglatish uchun ishlatiladi. Shahar yoki qishloqning uch ko‘cha, to‘rt ko‘chali yoki choyxona va magazinlar, baqqollik va qassoblik do‘konlari bo‘lgan gavjum va serqatnov, obod joy. Odatda, mahalla odamlari guzarga chiqib choyxo‘rlik qiladilar, suhbatlashadilar, hordiq chiqaradilar. Buxoroda mahalla, kvartal masalan, So‘zangaron guzari, Ibrohimxo‘ja guzari tarzida aytilgan, guzarni o‘tmishda qozi tayinlaydigan oqsoqol — guzaroqsoqol boshqargan. Xorazmda esa soydan qayiqning o‘tish joyi va odam o‘tishi uchun qo‘yilgan maxsus qayiq, deya atashgan. Ayniqsa, mahallalar Amir Temur davrida ravnaq topgan. Mahallalar fuqarolarning kasbkori asosida shakllangan va shunga qarab nomlangan. Masalan, zargarlik, misgarlik, ko‘nchilik, pichoqchilik, qoshiqchilik, temirchi, egarchi, taqachi va hakoza. Mahalla kichik ma‘muriy hudud bo‘lishi bilan birga, turmush tarzi,

qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar umumiyliigi bilan bog'langan kishilar jamoasi birligidir.

Har bir Mahalla boshqaruv tuzilmasiga ega va bu tuzilmani Mahalla yig'ini raisi (oqsoqol) muayyan tartibda boshqarib boradi. Mahalla bag'riga ko'plab oilalarni olar ekan, ular o'rtasidagi munosabatlarni ham tartibga solib boradi, ayniqsa, qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Xalqimiz bejizga aytishmagan, qo'shning tinch – sen tinch. Oilalarning hamjihatligi bu mahallaning obod ekanligidan darak beradi. Hozirgi kunimizda unitilib borayotgan yaxshi odatlarimizdan biri bu qo'shnichilik odobidir. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamga Jabroil farishta qo'shniga yaxshilik qiling, deb aytishda to'xtamadilar. Shunda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam "hatto qo'shni-qo'shniga merosxo'r bo'lib qolarmikan deb o'ylab qoldim" dedilar. Merosxo'r deganlari ota va bola kabi yaqinlikni anglatadi. Xalqimizning "qiyomatda qo'shnidan" degan purma'no gapida ham qo'shning yaxshiligiga qiyomatda guvoh o'tadi, degan tushuncha bor. "Qo'shni" deganda uyi-maskani, bog'i yoki do'koni yaqin kishilar ko'zda tutiladi. Islomda ijtimoiy aloqalar haqida so'z ketganda, qo'shnichilik aloqalariga katta ahamiyat beriladi. Alloh taolo Niso surasida marhamat qiladi: "Ota-onaga, yaqin qarindoshga, yetimlarga, miskinlarga, yaqin qo'shniga, yon qo'shniga, yondagi sohibga, yo'qsil yo'lchiga va qo'lingizda mulk bo'lganlarga yaxshilik qilinglar" (36-oyat). Inson bolasi o'z kundalik hayotida, istaydimi-istamaydimi, doimiy ravishda aloqada bo'lib turadigan toifalardan biri qo'shnilardir. Kishi hayotining osoyishtaligi, baxti, quvonchi ko'pincha qo'shni ila kechadigan aloqalariga ham bog'liq bo'ladi

Qo'shnichilikning umumiy odoblari:

- Yaxshi qo'shnichilik alomatlaridan biri muhtoj bo'lganida, unga qarz berishdir. Bu ham qo'shning hojatini chiqarish, ham uning ishonchini qozonishga xizmat qiladi;

- bemor bo'lsa, uni borib ko'rishdir;

- uning ta'ziasida ishtirok etishdir;

- uning xato va kamchiliklarini kechirish bilan ham bo'ladi;

- uning farzandlariga lutf ko'rsatish, yaxshilik va nasihat qilish hamda mehribon bo'lish bilan ham yuzaga chiqadi;

- yo'lini toraytirmaslik, yo'lga axlat tashlamaslik, bulg'atmaslik bilan ham bo'ladi;

- Qo'shniga yaxshilik qilish u tomonga quyosh yoki havoni to'sadigan, uning hovli-joyiga nazar tushmaydigan darajada imorat qurmaslik bilan ham bo'ladi;

- unga taom va mevalar hadya qilish, hojati tushganda unga yordam berish bilan bo'ladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, mahallalarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Hozirgi paytda mahallalarning bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida, o'z

faoliyatlarini tashkil etishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratildi. Ular, to‘y-ma‘raka, marosimlarni o‘tkazish, hasharlar uyushtirish, oilaviy nizolarni bartaraf etish, bemorlar holidan xabar olish ishlari bilan shug‘ullanadi.

Savollar:

1. Guzar deganda hayolingizga birinchi nima keladi?
2. Bu so‘zning toraygan va kengaygan ma‘nolarini ayting.
3. Nega aynan bu so‘z mahalla so‘zi bilan birgalikda keladi?
4. Alisher Navoiy o‘z asarida mahalla so‘zining ma‘nosini qanday izohlagan?
5. Amir Temur davrida mahalla nima asosida shakllangan?
6. Mahalla oqsoqolining vazifasi nimalardan iborat?
7. Qo‘shni va qo‘shnichilik so‘zlari o‘rtasida qanday farq bor?
8. Qo‘shnichilik munosabatlariga darz ketgan holatlar sizda kuzatilganmi va bu vaziyatda qanday yo‘l tutgansiz?
9. Siz mahallangiz uchun qanday hissa qo‘shgan bo‘lardingiz?

1-soat.

Dars jarayoni.

Kirish.

Xalqimizga xos bo‘lgan qadriyatlar nimalarda namoyon bo‘ladi, biz uni bir nom bilan nima deb ataymiz? Ushbu topshiriqda o‘quvchilarga mahalla haqida tasavvur paydo qilish uchun izohli rasmlar berilgan. O‘quvchilarga rasmlar orqali fikrlarini aytishadi.

Asosiy qism.

O‘qib-tushunish

“Mahalla guzari” matni bilan tanishish.

Muhokama.

1. Yuqoridagi matn asosida savollarga javob bering.

Bu savolga o‘quvchilar matn asosida berilgan ma‘lumotlarga tayanib javob berishi lozim. Bunda asosiy e‘tiborlardan biri "mahalla, guzar, qo‘shnichilik" kabi so‘zlarning ma‘nosini tushunishlariga qaratiladi. Bundan tashqari mahalladagi vaziyatlar o‘z munosabatlarini ham bildirishadi.

Uyga vazifa sifatida matnda keltirilgan qo‘shnichilik odoblari ro‘yxatini davom ettirish beriladi. Bu vazifa orqali xalqimizga xos bo‘lgan qo‘shnichilik munosabatlarida alohida odob qoidalari borligini tushunishgan holda o‘zlari ham ushbu qoidani yangidan kashf qilishadi.

2-soat.

Dars jarayoni. Yozma nutqiy topshiriqlar orqali lingvistik bilimni berish.

Kirish.

“So‘z nima? Qo‘shimcha nima? Ikkita tushunchani farqlab bering Misollar

keltiring”.

So‘zlarning bir-biriga bog‘lanishini fanda nima deb ataymiz? So‘zlar o‘zaro qanday bog‘lanadi?

Asosiy qism.

Yozma nutqiy topshiriqlar orqali lingvistik bilimni berish

1-Topshiriq. Matndan yasama otlarni topib, asos va qo‘shimchalarga ajrating. Quyidagi namuna asosida sodda va murakkab qo‘shimchalarga ajratib chiqing.

Namuna:baqqol+lik	qo‘shni+chilik
qassob+lik	Kam+chilik
taqa+chi	
egar+chi	
pichoq+chi+lik	
qoshiq+chi+lik	

Yuqoridagi topshiriq orqali qoida beriladi:

Qoida. So‘z yasovchi qo‘shimchalar tuzilishiga ko‘ra 2 xil:

Sodda qo‘shimchalar – bitta tarkibdan iborat

Murakkab qo‘shimchalar – ikki yoki undan ortiq qo‘shimchalarning birikuvidan tashkil topgan qo‘shimchalar.

Masalan, ish+chi, sinf+dosh; chorva + chilik, odam+garchilik

2-Topshiriq. Rasmlar asosida berilgan kasb nomlarini moslashtiring, izohini yozing. Bu topshiriq orqali o‘quvchilar izohli lug‘atlarga ham murojaat qilishadi, qadimda ishlatilgan kasb nomlari va ular nima bilan shug‘illanishgani haqida bilib olishadi.

Baqqollik - (arab.— ko‘katfurosh, sabzavotfurosh, g‘allafurosh) — bozor, guzar va mahallalardagi do‘konchalarda mayda-chuyda ro‘zg‘or mollari, kundalik yegulik oziq-ovqatlar sotuvchi mayda savdogar;

Pichoqchilik - pichoqsozlik - pichoq, ustara, xanjar va boshqa kesgir asboblarni yasash kasbi;

Qoshiqchilik – qoshiq yasash kasbi;

Ko‘nchilik - hayvon terisidan charm (ko‘n) tayyorlash kasbi;

Taqachi - Ot, xachir va eshakning oyog‘iga qoqiladigan taqani yasash bilan shug‘ullanuvchi kishilarning kasb-kori;

Misgarlik - hunarmandlikning qad. sohasi; mis va uning metallar bilan qotishmasidan qurollar, uy-ro‘zg‘or buyumlari va boshqa yasash kasbi;

Chilangarlik - mayda buyumlar (ustara, qaychi, bigiz, arra, iskana kabi ish asboblari)ni yasash kasbi, zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida turli mexanik amallarni bajarish;

Kosibchilik - (arab. - kasbkorlik) — 1)tor ma’noda — charmdan kovush, maxsi, shippak, etik va boshqa oyoq kiyimlarini qo‘lda tikish bilan shug‘ullanish;

Egarchi – Ot va eshaklarga egar yasab beruvchi kasb;

Temirchilik - 1) temirni bolg‘alab turli buyumlar (ketmon, o‘roq, tesha va boshqalar) yasash kasbi. 2) og‘ir mashinasozlikning metallni bolg‘alab, shtamplab, presslab turli buyumlar ishlab chiqariladigan tarmog‘i.

3-Topshiriq. So‘z birikmasiga oid topshiriq va qoida berilgan.

Topshiriq sharti: matn ichidan teng bog‘lanishli so‘z birikmalarini ajrating. Masalan, bugun va kelajak, choyxona va magazinlar, baqqollik va qassoblik...

Qoida. Teng bog‘lanish – ikki so‘zning teng huquqli, biri ikkinchisiga bo‘ysunmay bog‘lanishiga aytiladi.

4-Topshiriq. Matn ichidan tobe bog‘lanishli so‘z birikmalarini ajrating.

Misol uchun, serqatnov joyi, mahalla odamlari, fuqarolarning kasbkori...

Qoida. Tobe bog‘lanish – bir so‘zning (tobe so‘zning) boshqa bir so‘zga (hokim so‘zga) bo‘ysunish orqali bog‘lanishiga aytiladi.

Uyga vazifa sifatida “Qo‘shni-qo‘shniga merosxo‘r” degan jumlaning qanday tushundingiz, fikrlaringizni misollar orqali bayon qilib, bog‘lanishli matn hosil qiling.

3-soat

DARS JARAYONI.

Kirish.

MAHALLADA DUV-DUV GAP

Ota-ona farzand o‘rtasidagi munosabat

Qo‘shnichilik munosabatlari

Aka-ukalar o‘rtasidagi munosabatlar

Notinch oilalardagi muammolar

Asosiy qism.

Og‘zaki nutq ko‘nikmasini rivojlantirish

Kichik guruhlarda berilgan mavzular asosida sahnaviy ko‘rinishlarni tashkil qilish. Bu orqali o‘quvchilarda sahna madaniyatini shakllantirish, g‘oyalar yaratish, istedodini namoyon etish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish.

Guruhlar kichik sahnaviy ko‘rinishlarni ketma-ket ko‘rsatgach, baholanishadi.

Uyga vazifa sifatida Yashayotgan mahallangizdan reportaj tayyorlang (xoh tanqidiy yoki tahliliy)

Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari o‘rganilgan grammatik qoidalarga bog‘lab tashkil etiladi. Shu sababli bunday mashg‘ulotlarni mavzuni takrorlash, til hodisasiga doir malaka hosil qilish darslari doirasiga kiritamiz. Har bir mavzu nihoyalangach, takrorlash darslari tashkil etib, olingan yangi bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llashga o‘rgatish zarur. Bunda matn ustida ishlash, grammatik topshiriqli yozma ishlar, seminar dars bahs-munozara darsi, so‘z-o‘yin darsi, har xil topqirlik bellashuvi, grammatik tahlil kabi mashg‘ulotlarda o‘quvchining grammatik tushunchani o‘rganishi ongli tafakkurini o‘stirish uchun xizmat qiladi.

Maktabda ona tili o‘qitishning asosiy maqsadi o‘quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish bo‘lib, bu maqsadda erishuv jarayoni o‘quvchilarni ona tilidan bilimlar tizimini egallashlari, tegishli ko‘nikmalar hosil qilishlari, o‘zlarining ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirishlari bilan tavsiflanadi. Grammatik bilim, ko‘nikma va ijodiy faoliyat nutq madaniyati elementlari sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Umumiy o‘rta ta’limning ona tili fanidan davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturi. – Toshkent, 2017.
2. Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi. – Toshkent, 2020.
3. Do‘stmurodova O. Ona tili o‘qitishga doir yondashuv va tamoyillar. Til va adabiyot ta’limi. 2009-yil,3-son.
4. B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. –Toshkent, 2006. –26 b.
5. Mengliyev B., Sayfullayeva R. Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent, 2007.
6. Raupova L. (hammualliflikda). Zamonaviy o‘zbek tili. Sintaksis. II jild. Darslik.– T.:“MUMTOZ SO‘Z”, 2013. –309 b.
7. Raupova L. O‘zbek struktural tilshunosligi asoslari. O‘quv qo‘llanma. T.: “Innovatsiya-ziyo”, 2019.
8. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L. Hozirgi o‘zbek tili. Darslik. – Toshkent, 2002.
9. Muhammadjon Qodirov, Hamid Ne‘matov, Muhabbat Abduraimova, Ra’no Sayfullayeva, Baxtiyor Mengleyev. Ona tili. Umumta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Toshkent, 2019.